

QORADARYO HAVZASINING ANDIJON VILOYATI HUDUDIDAGI GIDROLOGIK XUSUSIYATLARI VA SUV RESURLARIDAN FOYDALANISH MUAMMOLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20583047>

Uktamov Urayimjon Shavkatjon o'g'li

Andijon davlat pedagogika instituti

Biologiya va geografiya kafedrasini mudiri, phd

Xusanova Mashxura Erkinjon qizi

Andijon davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya

Mazkur maqolada Qoradaryo daryosi havzasining Andijon viloyati hududidagi gidrologik xususiyatlari, suv resurslarining shakllanish omillari, daryo oqimining mavsumiy o'zgarishlari hamda hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada suv resurslaridan foydalanish jarayonida yuzaga kelayotgan muammolar, jumladan, suv tanqisligi, suv sifati yomonlashuvi, irrigatsiya tizimlaridagi yo'qotishlar, iqlim o'zgarishining ta'siri va transchegaraviy suv resurslarini boshqarish masalalari yoritilgan. Suv resurslaridan oqilona foydalanish, suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish va ekologik barqarorlikni ta'minlash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar

Qoradaryo daryosi, Andijon viloyati, gidrologik xususiyatlar, suv resurslari, suv rejimi, irrigatsiya, suv tanqisligi, iqlim o'zgarishi, ekologik muammolar, suv xo'jaligi.

Kirish. O'zbekistonning ekologik xavfsizligi nuqtai nazaridan qaraganda, suv zaxiralarining, shu jumladan yer usti va yer osti suvlarining keskin taqchilligi hamda ifloslanganligi katta tashvish tug'dirmoqda. Respublikaning daryolari, kanallari, suv omborlari va hatto yer osti suvlari ham har taraflama inson faoliyatining ta'siriga uchramoqda. Sug'oriladigan hududlarda suv tabiatning bebaho in'omidir. Butun hayot suv bilan bog'lik. Zotan, suv tamom bo'lgan joyda hayot ham tugaydi. Shunday bo'lsada, Markaziy Osiyoda suv zaxiralari juda cheklangan. Yiliga 78 kub kilometr suv keltiradigan Amudaryo va 36 kub kilometr suv keltiradigan Sirdaryo asosiy suv manbalaridir. Suv zaxiralarining sifati eng muhim muammolardan biridir. 60-yillardan boshlab Markaziy Osiyoda yangi yerlar keng ko'lamda o'zlashtirildi.

Respublikada foydalaniladigan suvning ko'p qismi qo'shni davlatlar hududlaridan oqib keladi. Respublikada foydalaniladigan suvning 85 foizi qishloq xo'jaligida ishlatiladi. Dexdonchilikka mo'ljallangan yerlarning 98 foizini sug'oriladigan maydonlar tashkil etadi. O'zbekiston hududida vujudga keladigan suv resurslarining ulushi Amudaryo havzasi bo'yicha 6 foizni, Sirdaryo havzasi bo'yicha 16 foizni, Respublika bo'yicha jami oqimning taxminan 8 foizini tashkil qiladi. Ko'rinib turibdiki, suvdan tejab-tergab, samarali foydalanilmasa, kelgusida suv ta'minotida muammolar kelib chiqishi mumkin.

Respublikamizda suv resurslaridan samarali foydalanish maqsadida bir nechta ishlar amaga oshirilmoqda. Endi esa buni Andijon viloyati hududida joylashgan Qoradaryo daryosi misolida ko'rib chiqamiz.

Asosiy qism. Andijon viloyati O'zbekistonning qishloq xo'jaligi rivojlangan hududlaridan biri bo'lib, sug'oriladigan yerlar maydoni katta ulushni tashkil etadi. Viloyatda paxta, g'alla, sabzavot, poliz ekinlari, bog' va uzumzorlar yetishtirishda Qoradaryo havzasi suvlaridan keng foydalaniladi.

Andijon viloyatidagi Qoradaryo viloyatning eng yirik daryolaridan biri bo'lib, uning umumiy uzunligi 180 km uning 37 km qismi Qozog'iston Respublikasi hududidan oqib o'tadi. Suv yig'ish havzasining umumiy maydoni 30100 kvadrat kilometrni tashkil qiladi. Uning yillik suv sarfi o'ta sersuv yillari sekundiga 1200-1500 kub metrni tashkil qilgan bo'lsa, doimiy holda 800-1000 kub metrga yetadi. Qoradaryoning asosiy ikkita irmog'i bo'lib, ular Qorakulja va Tor daryolari hisoblanadi. Qoradaryoning o'ng irmog'i hisoblangan Qora-Kulja Farg'ona tizmasining janubi-sharqiy qismida 4692 metr balandlikdagi g'arbiy yonbag'rlaridan boshlansa, Tor daryosi Qizilqiyaning shimolida Qashqasuv degan joydan boshlanadi. 78 Qorag'ulja daryosi bilan Tor daryosi O'zgan shahrining sharqida 15 kilometr uzoqlikda qo'shilishidan Qoradaryo hosil bo'ladi. Qoradaryoga Oloy tog' tizmasidan suv oladigan Qulja daryosiga Qorasuv shahri atrofida o'z suvini Qoradaryoga olib kelib quyadi. Undan tashqari yana bir nechta jilg'alar, soylar Qoradaryoni suv resursi bilan ta'minlaydi. O'zgan shahridan o'ng tomonda Yassi, chap tomondan esa Qurshab daryolari ham o'z suvlarini olib kelib quyadi. Qoradaryoning to'yinish manbayi, asosan, muzlik va qor hisoblanadi. Daryo o'zanida vodiydagi eng yirik suv omborlarida biri hisoblangan Andijon suv ombori barpo etilgan bo'lib, ushbu suv omborida yil davomida suv to'planib, Andijon, Namangan, Farg'ona viloyatlari aholisini va xo'jaliklarini suv manbayi bilan ta'minlashga xizmat qiladi.

Qoradaryo o'zani Andijon suv omboridan chiqib viloyatning Qorg'ontepa, Jalaquduq, Andijon, Paxtaobod, Izboskan, Oltinko'l va Baliqchi tumanlari hududidan oqib o'tadi, bu hududlardan oqib o'tgunga qadar, unga daryoning o'ng

tarafidan Kuok-Art, Tentaksoy, Maylisoy daryolari qo'shilsa, chap tarafdin Qorag'unon daryosi kelib o'z suvini quyadi. Qoradaryo Baqliqchi tumanining Qo'rg'oncha mahlla fuqarolar yig'ini hududidagi Chumchuqyor qishlog'ida Norin daryosi bilan birlashib Sirdaryoni hosil qiladi.



1-rasm. Norin va Qoradaryo daryolarining qo'shilish xaritasi

Farg'ona vodiysiga chiqqanidan so'ng daryo suvi ko'plab sug'orishga sarflanadi. [Katta Farg'ona kanali](#), [Shahrixonsoy](#), [Andijonsoy](#) va [Paxtaobod](#) kanallari Qoradaryodan suv oladi. Daryo suvidan Andijon viloyati va Qirg'izistonning [O'sh viloyati](#) ekin maydonlari sug'oriladi.

Qoradaryo o'zagida suv oqimini tartibga solib uni boshqarib turish uchun Teshiktosh va Kuyganyor gidrouzullari qurilgan bo'lib, bu suv inshootlari daryo suvini taqsimlab undan foydalanish imkoniyatlarini yaxshilab nazorat qiladi. Undan tashqari daryo tabiatda bo'ladigan sel va kollektor-zovur suvlarini ham olib chiqib ketish xizmat qiladi.

So'nggi yillarda Andijon viloyatida suv resurslaridan foydalanish bilan bog'liq qator muammolar yuzaga kelmoqda. Ulardan biri suv tanqisligidir. Aholi sonining ko'payishi, sug'oriladigan yerlar maydonining kengayishi va sanoat korxonalarining rivojlanishi suvga bo'lgan talabning ortishiga sabab bo'lmoqda.

Yana bir muhim muammo irrigatsiya tizimlaridagi suv yo'qotishlaridir. Ayrim kanallarning texnik holati talab darajasida emasligi natijasida suvning bir qismi sizib ketish va bug'lanish hisobiga yo'qoladi. Bu esa suvdan foydalanish samaradorligini pasaytiradi.

Qishloq xo'jaligida mineral o'g'itlar va pestitsidlarning qo'llanilishi natijasida kollektor-drenaj suvlari orqali suv havzalariga zararli moddalar tushmoqda. Bu

holat suv sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatib, ekologik muammolarni keltirib chiqarmoqda.



2-rasm. Qoradaryo daryosining Baliqchi tumanida joylashgan havzasi

Global iqlim o'zgarishi ham havza suv resurslariga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Tog' muzliklarining qisqarishi va yog'in rejimining o'zgarishi kelajakda Qoradaryo oqimining kamayishiga olib kelishi mumkin. Bu esa Andijon viloyatining suv bilan ta'minlanishida muayyan qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi.

Andijon viloyatida Qoradaryo havzasi suvlaridan samarali foydalanish uchun suv tejoychi texnologiyalarni keng joriy etish zarur. Xususan, tomchilatib sug'orish va yomg'irlatib sug'orish usullari suv sarfini sezilarli darajada kamaytirishga yordam beradi.

Irrigatsiya tarmoqlarini rekonstruksiya qilish, kanallarni betonlashtirish va suv hisobini yuritish tizimini takomillashtirish orqali suv yo'qotishlarini kamaytirish mumkin. Bundan tashqari, suv resurslarining ekologik holatini muntazam monitoring qilish va ifloslanish manbalarini nazorat ostiga olish muhim ahamiyatga ega.

Qoradaryo havzasida suv resurslarini integrallashgan boshqarish tamoyillarini qo'llash, suvdan foydalanuvchilar uyushmalari faoliyatini rivojlantirish hamda suv tejash madaniyatini shakllantirish viloyatning suv xavfsizligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Xulosa. Qoradaryo havzasi Andijon viloyatining suv xo'jaligi tizimida muhim o'rin tutib, viloyatning qishloq xo'jaligi, sanoati va aholini ichimlik suvi bilan ta'minlashda asosiy suv manbalaridan biri hisoblanadi. Havza suv resurslaridan samarali foydalanish hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va ekologik

barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Andijon viloyati hududida suv resurslariga bo'lgan talabning ortishi, irrigatsiya tarmoqlaridagi suv yo'qotishlari, suv havzalarining ifloslanishi hamda iqlim o'zgarishi bilan bog'liq jarayonlar havzaning suv resurslariga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Mavjud muammolarni bartaraf etishda suv resurslarini boshqarishning zamonaviy usullarini joriy etish muhim hisoblanadi. Xususan, qishloq xo'jaligida tomchilatib va yomg'irlatib sug'orish texnologiyalaridan keng foydalanish, kanallar va sug'orish tarmoqlarini rekonstruksiya qilish, suv hisobini yuritish va nazorat qilish tizimlarini takomillashtirish suvdan foydalanish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Shu bilan birga, suv havzalarining ekologik holatini yaxshilash maqsadida oqova suvlarni tozalash darajasini oshirish, kimyoviy o'g'it va pestitsidlardan oqilona foydalanish hamda suv sifati monitoringini muntazam olib borish zarur.

Qoradaryo havzasida suv resurslarini integrallashgan boshqarish tamoyillarini qo'llash, suv xo'jaligi infratuzilmasini modernizatsiya qilish va ekologik xavfsizlik choralari kuchaytirish orqali Andijon viloyatining suv bilan barqaror ta'minlanishiga erishish mumkin. Natijada havza suv resurslaridan samarali foydalanish ta'minlanib, viloyatning kelgusidagi barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi uchun mustahkam zamin yaratiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. X.Valieyev, Sh.Murodov, B.Xolbayev. "Suv resurslaridan mukammal foydalanish va muhofaza qilish"
2. S.Djalolov. Suv tanqisligi sharoitida sug'orma dehqonchilik. T. 2000
3. A.Rahmatullayev. O'zbekistonda suv resurslari va sug'orma dehqonchiligi. Cho'larni o'zlashtirish muammolari
4. Уктамов У.Ш. Факторы, влияющие на трансформацию ландшафтов Центральной Ферганской пустыни. // "Экономика и социум" №7 (98) 2022. www.iupr.ru. "Институт управления и социально-экономического развития", Россия, г. Саратов. ISSN 2225-1545.(11.00.00. Мустақил давлатлар ҳамдўстлиги мамлакатлари нашрлари № 11). 378-382 с.
5. Uktamov U. Sh. Anthropogenic factors affecting the desertification of the deserts of Central Fergana. // Journal of Geography and Natural Resources, 04-Jild, 01-Son, 2024. [ISSN : 2181-2713](http://www.issn.org). – B-32-37.

6. U.S.H. Markaziy Farg'ona cho'l landshaftlarining antropogen omillar ta'sirida sodir bo'layotgan o'zgarishlari //FarDU ilmiy xabarlar jurnali, 1-son. Farg'ona, 2024. – B.248-252. (11.00.00, №8).

7. Уктамов У.Ш. Классификация (дифференциация) ландшафтов Центральной Ферганской пустыни. // Экономика и социум.-2024. – №6(121). www.iupr.ru. "Институт управления и социально-экономического развития", Россия, г. Саратов. ISSN 2225-1545. (11.00.00. Мустақил давлатлар ҳамдўстлиги мамлакатлари нашрлари № 11). 1401-1405 с.